

TIL O'RGANISHDAGI SUN'IY INTELLEKTNING FOYDA VA ZARARLARI**Muniraxon Saibova****O'z DJTU Ingliz tili 3-fakulteti****Amaliy fanlar kafedrası, Ingliz tili 3-fakulteti 1-kurs talabasi****Saodat Agzamxo'jayeva****Ilmiy rahbar****Amaliy fanlar kafedrası katta o'qituvchisi 3****Ingliz tili 3-fakulteti, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti****<https://doi.org/10.5281/zenodo.14934661>**

Annotatsiya. ushbu maqola sun'iy intellektning til o'rganish jarayonidagi foyda va zararlarini ochib beradi va nima uchun texnologiyaga haddan tashqari ishonch, inson omilining pasayishi va axborot xavfsizligi kabi muammolar ko'rib chiqiladi. Shuningdek, sun'iy intellekt texnologiyalaridan ortiqcha foydalanish o'quvchilarda mustaqil fikrlash qobiliyatining pasayishi, ijtimoiy aloqalarning cheklanishi va axloqiy-psixologik muammolarga olib kelishi mumkin.

Kalit so'zlar: sun'iy intellekt, shaxsiylashtirilgan o'qitish, masofaviy ta'lim, axborot xavfsizligi, o'quv chatbotlari, o'qitish metodlari, til o'rganish platformalari, virtual yordamchilar.

Kirish: Bugungi kunda eng ommalashgan mavzulardan biri bu sun'iy intellekt. Sun'iy intellekt hayotimizning bir qismiga aylanib ulgurgan. Biz bundan turli maqsadlarda foydalanamiz. Jumladan, ta'lim sohasiga ham kirib kelmoqda. Til o'rganish jarayonida sun'iy intellekt vositalaridan foydalanish o'quvchilarga yangi imkoniyatlarni yaratmoqda. Ayniqsa, bugungi kunda chet tillarini o'rganish ancha osonlashdi, chunki sun'iy intellekt asosida ishlovchi turli xil o'quv chatbotlari, virtual yordamchilar va interaktiv dasturlar. Bu texnologiyalar o'quvchilarga shaxsiylashtirilgan ta'lim olish, talaffuzni yaxshilash, grammatika xatolarni avtomatik tahlil qilish va nutq amaliyotini rivojlantirish imkonini bermoqda.

Biroq, sun'iy intellektning ta'lim sohasiga kirib kelishi bir qator muammolarni keltirib chiqarmoqda. Sun'iy intellekt haddan tashqari foydalanish inson muloqotining kamayishiga, o'quvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyatining pasayishiga va texnologiyaga ortiqcha bog'lanib qolishiga olib kelishi mumkin. Sun'iy intellekt platformalari doim ham mukammal emas – ular ham xatolar qilishi yoki noto'g'ri tarjimalar qilishi mumkin. Shunday ekan, sun'iy intellektning til o'rganishdagi foydalari va salbiy jihatlarini tahlil qilish, texnologiyadan samarali foydalanish yo'llarini aniqlash muhim vazifalardan biri sanaladi. Ushbu maqolada sun'iy intellekt vositalarining til o'rganishga ta'siri, ularning afzallik va cheklovlari, shuningdek, kelajakda qanday yo'nalishlarda rivojlanishi mumkinligi muhokama qilinadi.

Muhokama va natijalar: Sun'iy intellekt bugungi kunda til o'rganish jarayonida keng qo'llanilib, studentlar uchun bu texnologiya akademik ta'limni yengillashtirsa, boshqa maqsadda til o'rganayotgan insonlar uchun esa shaxsiy rivojlanish, kasbiy o'sish va global muloqot imkoniyatlarini kengaytiradi. Studentlar ko'pincha chet tillarini universitet va maktab dasturlari doirasida o'rganadilar. Sun'iy intellekt esa ularning bilim olish jarayonini yanada tez va oson o'rganishlari uchun yordam beradi. Shaxsiylashtirilgan ta'lim – talabaning bilim darajasiga qarab sun'iy intellekt moslashtirilgan mashqlar va darsliklar tayyorlaydi. Masalan, kompyuter kabi dasturlar talabaning o'rganish tezligini va qiziqishlarini tahlil qilib, talaba uchun o'quv rejalarini yaratadi. Agarda o'quvchi grammatikadan yoki lug'atdan ko'proq ehtiyoj

sezsa, unga shu yo'nalishda ko'proq mashqlar taqdim etiladi. Yozma va og'zaki nutqni rivojlantirish uchun turli xildagi programmalarni ko'rishimiz mumkin. Misol uchun Grammarly, Language Tool orqali studentlar yozma ishlarini tekshirib, Grammatik xatolarini bilib olishlari mumkin.

Nutq amaliyotini oshirish uchun esa ELSA Speak yoki Speechling til o'rganish dasturlari yordamida talaffuzni rivojlantirish va qanday qilib uni yaxshilash mumkinligi haqida tavsiyalar beradi. Mustaqil o'rganish imkoniyati – ko'plab studentlar o'z vaqtini o'zlari boshqarishni xohlashadi. Masalan, internet tarmoqlaridagi darslar o'quvchilarga eng samarali ta'lim resurslarini topishga yordam beradi. Boshqa maqsadda til o'rganuvchilar uchun sun'iy intellektning foydalari. Boshqa maqsadda til o'rganuvchilar deganda ishbilarmonlar, sayohatchilar, yangi kasb egallashni istaganlar va tilga qiziqadigon boshqa insonlar nazarda tutilmoqda. Misol uchun, sun'iy intellektni ish va biznesda qo'llash. Xalqaro biznes aloqalarini rivojlantirishda Google Translate yoki Deepl dastur kabi tarjimonlar yordamida turli xil tillarda hujjatlar tayyorlash yoki mijozlar bilan muloqot qilish osonlashadi. Sayohat va kundalik paytida til to'siqlarini bartaraf qilish uchun Google Lens va Translate dasturlari yordamida chet elda yo'nalishlarni tushunish, mahalliy odamlar bilan muloqot qilish oson bo'ladi. Muloqot paytida sayohatchilar va madaniyatlarni o'rganishni istaganlar uchun ELSA Speak yoki Rosetta Stone kabi ilovalar yordamida talaffuz ustida ishlash mumkin.

Chet tillari tarjimonlari va tilshunoslari uchun : Sun'iy intellekt avtomatik tarjima va lingvistik tahlil vositalari orqali tarjimonlik sohasida ishlovchi mutaxassislariga yordam beradi. Sun'iy intellekt til o'rganish jarayonida ko'plab foydali taraflari bo'lsa-da, ammo u bilan bog'liq zararli taraflari ham mavjud. Talabalar va boshqa maqsadda til o'rganuvchilar sun'iy intellekt vositalariga haddan tashqari suyanib qolsa, mustaqil fikrlash, jonli muloqot va an'anaviy ta'lim usullari zarar ko'rishi mumkin. Studentlar uchun sun'iy intellektning zararli jihatlari. Bugungi kunda, studentlar sun'iy intellektidan ko'p foydalanishlari natijasida mustaqil o'rganish qobiliyatlari pasayib ketmoqda. Bunga misol qilib talabalar yozma topshiriqlar, insho va maqolalarni yozishda sun'iy intellektidan foydalanishmoqda. Shu sababdan, talabalar o'z ijodiy fikrlash va tahlil qilish qobiliyatini yo'qotib borishmoqda. ChatGPT kabi vositalardan foydalanish natijasida talabalar murakkab jummalarni o'zlari tarjima qilishlari o'rniga tayyor ChatGPT dan foydalanishmoqda. Inson muloqotining kamayishi. Student til o'rganyotgan paytida jonli muloqot juda ham muhim, ammo sun'iy intellektidan foydalangan talabalar jonli suhbat qurganda qiynalishadi. Misol uchun, Sun'iy intellekt vositalari yuz ifodalari, imo-ishoralar va nutq intonatsiyasini hisobga olmaydi, bu esa talabalar uchun real hayotdagi muloqotni qiyinlashtiradi. Sun'iy intellektning nato'g'ri javoblari va tarjimalari. Sun'iy intellektning ham barcha ma'lumotlari ishonchli emas, va ba'zan u noto'g'ri tarjima yoki xato ma'lumot berishi mumkin. Masalan, Google Translate ba'zan so'zlarning kontekstini noto'g'ri tushunib, ma'nosi buzilgan tarjimalarni taqdim etishi mumkin. Texnologiyaga haddan tashqari o'rganib qolishlik. Ba'zi talabalar sun'iy intellekt vositalaridan foydalanishga shu qadar o'rganib qoladiki, ular o'z bilimlarini mustaqil sinab ham ko'rishmaydi. Misol uchun, chet tilida matn yozayotganda, talabalar o'z grammatik bilimlariga ishonish o'rniga har safar avtomatik tuzatish dasturlariga murjaat qiladilar.

Boshqa maqsadda til o'rganuvchilar uchun zararli jihatlari. Ishbilarmonlar va tarjimonlar uchun xavfli tomoni: Sun'iy intellekt asosidagi tarjima vositalari ishbilarmonlar va tarjimonlarning sifatli ishlashiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Masalan, xalqaro biznesda

ishlovchilar noto'g'ri tarjima qilishlari natijasida o'z biznes hamkori bilan turli xil muammolarni yuzaga keltirishi mumkin. Sun'iy intellektga haddan tashqari bog'lanib qolishlik til o'rganish jarayonining tabiiyligini yo'qotishga sabab bo'lishi mumkin. Misol uchun: Sayohatchilar avtomatik tarjimonlarga juda ishonib, tilni o'rganish o'rniga faqat dasturlarga tayanib qolishlari mumkin.

Xavfsizlik va maxfiylik muammolari mavjud va ular sun'iy intellect platformalari foydalanuvchilarning shaxsiy ma'lumotlarini saqlaydi va bu ma'lumotlarning xavfsizligi ta'minlanmasligi mumkin. Talabalar va boshqa foydalanuvchilar o'z shaxsiy ma'lumotlarini va yozishmalarini sun'iy intellekt vositalarida qayta ishlaganda, bu ma'lumotlar no'g'ri qo'llarga tushib qolishi mumkin.

Yuqoridagi fikr va mulohazalardan kelib chiqqan holda quyidagilarni hulosa qilish mumkin: Sun'iy intellekt til o'rganish jarayonini yanada samarali va qulay qilgan bo'lsa-da, ammo undan haddan tashqari ko'p foydalanish insonda muloqotning kamayishiga, mustaqil fikrlashning zaiflashishiga va texnologiyaga qaramlik kabi salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin. Studentlar va boshqa til o'rganuvchilar sun'iy intellekt vositalariga ortiqcha bog'lanib, jonli suhbat ko'nikmalarini rivojlantirishdan uzoqlashishi yoki o'z ijodiy fikrlarini to'liq shakllantira olmasligiga olib kelishi mumkin. Shu sababli, sun'iy intellektdan til o'rganishda vosita sifatida foydalanish kerak, lekin uni kitob o'qish, yozma mashqlar bajarish va jonli muloqot bilan uyg'unlashtirish zarur. Sun'iy intellekt imkoniyatlaridan ongli foydalanib, uning salbiy ta'sirlarini kamaytirish orqali biz nafaqat til o'rganish jarayonini rivojlantiramiz, balki haqiqiy hayotda ham samarali muloqot qilish qobiliyatini mustahkamlaymiz. Til o'rganish – bu faqat texnologiyaga tayanadigan jarayon emas, balki insoniy tajriba, amaliyot va muloqot bilan boyitiladigan uzluksiz o'sish yo'lidir. Kelajakda sun'iy intellekt texnologiyalari yanada rivojlanadi, ammo uning zararlarini kamaytirish uchun uni to'g'ri va ongli ravishda foydalanish muhimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar/Используемая литература/References:

1. Ong'arov Diyorjon Rustam o'g'li, Eraliyeva Sevinch Sharofiddin qizi. "Sun'iy intellektning bugungi kundagi ahamiyati." Guliston Davlat universiteti, 2021.
2. ResearchGate. "Sun'iy intellekt va ekspert tizimlar." ResearchGate, 2021.
3. ICT Xabar. "Sun'iy intellektning eng yaxshi texnologiyalari." ICT Xabar, 2022.
4. Ng, A. (2016). Machine Learning Yearning. DeepLearning.AI.
5. Scienceweb. "Sun'iy intellect, uning tarixi, ahamiyati, ijobiy va salbiy tomonlari". Scienceweb, 2021.